**UO‘K 81**

# O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIGA OID DISSERTATSION TADQIQOTLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (1940–2025-YILLAR BIBLIOGRAFIYASI ASOSIDA)

***Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna,***
*Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,*
*filologiya fanlari doktori (DSc)*
*bunnycham@mail.ru*

***Annotatsiya.*** *Maqolada 1940 – 2025-yillarda o‘zbek tilshunosligi va u bilan bevosita aloqador yo‘nalishlarda bajarilgan dissertatsion tadqiqotlarning rivojlanish tendensiyalari maxsus tuzilgan bibliografik majmua asosida tahlil qilindi. Tadqiqot materialini o‘zbek tili; til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi; qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik hamda tarjimashunoslik; Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili; Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosliklariga oid 2 218 ta dissertatsiya va avtoreferat tashkil etdi. Bibliografik, tavsifiy, xronologik, qiyosiy-tipologik, miqdoriy hamda tematik tasnif metodlari vositasida dissertatsion jarayonning shakllanish, tarmoqlanish, paradigmatik yangilanish va raqamli transformatsiya bosqichlari ajratildi. Natijalar o‘zbek tilshunosligida dastlab grammatik qurilish va dialektologiya ustuvor bo‘lganini, keyinchalik leksikologiya, uslubshunoslik, matn lingvistikasi, pragmatika, lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasi yo‘nalishlari faollashganini ko‘rsatdi. Bibliografik ma’lumotlarning korpuslashtirilishi ilmiy merosni tezkor izlash bilan birga, mavzular takrori, tadqiqot bo‘shliqlari, ilmiy maktablar va fan rivojining uzoq muddatli tendensiyalarini aniqlashga xizmat qilishi asoslandi.*

***Kalit so‘zlar:*** *o‘zbek tilshunosligi, dissertatsiya, avtoreferat, bibliografiya, bibliometrik tahlil, ilmiy yo‘nalish, ilmiy maktab, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, raqamli bibliografik korpus.*

# ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ДИССЕРТАЦИОННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКОЗНАНИЮ (НА ОСНОВЕ БИБЛИОГРАФИИ ЗА 1940–2025 ГОДЫ)

***Аннотация.*** *В статье на основе специально составленного библиографического комплекса проанализированы тенденции развития диссертационных исследований, выполненных по узбекскому языкознанию и непосредственно смежным направлениям в 1940–2025 годах. Материалом исследования послужили 2 218 диссертаций и авторефератов по специальностям: узбекский язык; теория языка, прикладная и компьютерная лингвистика; сравнительное и сопоставительное языкознание, а также переводоведение; языки народов Европы, Америки и Австралии; языки и литература народов Азии и Африки. С помощью библиографического, описательного, хронологического, сравнительно-типологического, количественного методов, а также метода тематической классификации были выделены этапы формирования, разветвления, парадигматического обновления и цифровой трансформации диссертационного процесса. Результаты показали, что в узбекском языкознании первоначально преобладали исследования грамматического строя и диалектология, а затем активизировались такие направления, как лексикология, стилистика, лингвистика текста, прагматика, лингвокультурология, переводоведение и компьютерная лингвистика. Обосновано, что создание корпуса библиографической информации, наряду с оперативным поиском научного наследия, служит выявлению повторения тем, исследовательских пробелов, научных школ и долгосрочных тенденций развития науки. Результаты показали, что в узбекском языкознании первоначально преобладали грамматический строй и диалектология, а затем активизировались направления лексикологии, стилистики, лингвистики текста, прагматики, лингвокультурологии, переводоведения и компьютерной лингвистики.*

***Ключевые слова:*** *узбекское языкознание, диссертация, автореферат, библиография, библиометрический анализ, научное направление, научная школа, компьютерная лингвистика, корпусная лингвистика, цифровой библиографический корпус.*

# DEVELOPMENT TRENDS IN DISSERTATION RESEARCH ON UZBEK LINGUISTICS (BASED ON A BIBLIOGRAPHY COVERING 1940–2025)

***Abstract.*** *The article analyzes the development trends of dissertation research conducted in Uzbek linguistics and directly related fields between 1940 and 2025, based on a specially compiled bibliographic collection. The research material consisted of 2,218 dissertations and abstracts in the specialties of the Uzbek language; language theory, applied and computational linguistics; comparative and contrastive linguistics and translation studies; languages of the peoples of Europe, America, and Australia; and languages and literature of the peoples of Asia and Africa. Using bibliographic, descriptive, chronological, comparative-typological, quantitative, and thematic classification methods, the stages of formation, branching, paradigmatic renewal, and digital transformation of the dissertation process were identified. The results showed that Uzbek linguistics initially prioritized grammatical structure and dialectology, followed by an increased focus on the fields of lexicology, stylistics, text linguistics, pragmatics, linguoculturology, translation studies, and computational linguistics. It was substantiated that creating a corpus of bibliographic information not only facilitates the rapid search of scientific heritage but also serves to identify thematic repetitions, research gaps, scientific schools, and long-term trends in the development of the discipline. The results showed that Uzbek linguistics initially prioritized grammatical construction and dialectology, followed by lexicology, stylistics, text linguistics, pragmatics, linguoculturology, translation studies, and computer linguistics.*

***Keywords:*** *Uzbek linguistics, dissertation, abstract, bibliography, bibliometric analysis, scientific direction, scientific school, computational linguistics, corpus linguistics, digital bibliographic corpus.*

**Kirish.** Muayyan fan sohasining rivojlanish darajasi faqat e’lon qilingan nazariy asarlar yoki alohida olimlarning qarashlari bilangina emas, balki shu sohada bajarilgan dissertatsion tadqiqotlarning mavzusi, miqdori, ilmiy yo‘nalishi va institutsional geografiyasi bilan ham belgilanadi. Dissertatsiya ilmiy muammoning qo‘yilishi, tadqiqot metodologiyasining tanlanishi, yangi natijaning asoslanishi hamda ilmiy maktab tajribasining keyingi avlodga uzatilishini birlashtiradigan murakkab ilmiy mahsulotdir. Shu sababli dissertatsiyalar haqidagi bibliografik ma’lumotlarni tizimli o‘rganish fan tarixining yordamchi vazifasi emas, uning ichki rivojlanish mexanizmlarini ochib beradigan mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Bibliometriya yozma ilmiy kommunikatsiyaning miqdoriy tomonlarini o‘rganish uchun matematik va statistik usullarni qo‘llash sifatida izohlangan [9: 348 – 349]. Zamonaviy bibliometrik tadqiqotlarda esa oddiy nashrlar sonini hisoblashdan tashqari, fan yo‘nalishlarining rivojlanishi, konseptual tuzilishi, mualliflar hamkorligi va bilimning tarqalish yo‘llarini aniqlashga e’tibor kuchaygan [4: 285–296]. Mazkur yondashuv dissertatsion tadqiqotlar bibliografiyasiga tatbiq etilganda, bibliografik yozuv alohida manbani topish vositasidan fan rivojini ifodalovchi empirik ko‘rsatkichga aylanadi.

O‘zbek tilshunosligi bo‘yicha himoya qilingan dissertatsiyalar uzoq vaqt davomida turli kutubxona fondlari, ilmiy muassasalar, oliy ta’lim tashkilotlari va elektron resurslarda tarqoq holda saqlanib keldi. Natijada muayyan mavzuning avval o‘rganilganlik darajasini aniqlash, bir davrga tegishli tadqiqotlarni qiyoslash yoki ilmiy yo‘nalishning tarixiy dinamikasini kuzatish ko‘p vaqt talab qilgan. “XX–XXI asr o‘zbek tilshunosligiga oid dissertatsiya va avtoreferatlar bibliografiyasi (1940–2025-yillar)”da 2 218 ta ilmiy ishning yagona tizimga keltirilishi mazkur muammoni hal etish yo‘lidagi muhim natijadir (7: 504).

Bibliografiya o‘zbek tili; til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi; qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik hamda tarjimashunoslik; Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili; Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti yo‘nalishlarini qamrab oladi. Bunday ko‘lam o‘zbek tilshunosligini faqat milliy til qurilishi doirasida emas, umumiy til nazariyasi, tillararo munosabat, tarjima, xorijiy filologiya va raqamli texnologiyalar bilan aloqador yaxlit ilmiy maydon sifatida kuzatish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi 1940–2025-yillarda bajarilgan dissertatsiyalar bibliografiyasi asosida o‘zbek tilshunosligining rivojlanish bosqichlari va yetakchi tendensiyalarini aniqlash, mavjud bibliografik ma’lumotlarni raqamli korpusga aylantirishning ilmiy zaruratini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun dissertatsiyalarni ixtisosliklar bo‘yicha taqsimlash, mavzuviy yo‘nalishlarning tarixiy almashinuvini tavsiflash, yangi paradigmalarning kirib kelishini ko‘rsatish, kompyuter va korpus lingvistikasiga oid tadqiqotlarning faollashuvini baholash hamda bibliografik bazadan kelib chiqadigan istiqbolli vazifalarni belgilash ko‘zda tutildi.

**Tadqiqot materiali va metodlari.** Tadqiqot materiali sifatida 1940–2025-yillar oralig‘ida himoya qilingan 2 218 ta dissertatsiya va avtoreferat haqidagi bibliografik yozuvlardan foydalanildi. Majmuaga o‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha 1 200 ta, til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi bo‘yicha 184 ta, qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik hamda tarjimashunoslik bo‘yicha 749 ta, Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili bo‘yicha 50 ta, Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti bo‘yicha 35 ta ilmiy ish

kiritilgan (7: 504). Ushbu miqdorlar bibliografiyada qabul qilingan ixtisoslik tasnifiga mansub bo‘lib, tarixiy davrlardagi shifr va nom o‘zgarishlarini ham qamrab oladi.

Manbalarni aniqlashda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasi, O‘zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti fondlari hamda dissertatsiya.natlib.uz, ZiyoNET va Unilibrary elektron resurslaridagi ma’lumotlardan foydalanilgan. Har bir yozuv imkon qadar muallif, mavzu, ilmiy daraja, ixtisoslik, rahbar yoki maslahatchi, bajarilgan muassasa, himoya joyi va sanasi, UDK yoki UO‘K indeksi, hajm hamda izlash manzili kabi tarkibiy qismlar bilan ta’minlangan.

Tahlilda bibliografik tavsif, xronologik kuzatish, miqdoriy hisob, tematik guruhlash, qiyosiy-tipologik tahlil va ilmiy talqin metodlari uyg‘unlashtirildi. Miqdoriy tahlil fan taraqqiyotini faqat son bilan baholash uchun emas, miqdoriy o‘zgarish ortidagi mazmuniy siljishni aniqlash uchun qo‘llandi. Bibliometrik tahlilning samaradorligi ma’lumotlar bazasining sifati, birliklarning to‘g‘ri ajratilishi va tahlil mezonlarining tadqiqot maqsadiga mosligiga bog‘liq [1: 1959–975].

Dissertatsiya mavzusi tematik tasnifning asosiy, ammo yagona bo‘lmagan manbasi sifatida olindi. Chunki sarlavha odatda tadqiqot obyekti va yo‘nalishini ko‘rsatadi, lekin uning metodologiyasi yoki barcha natijalarini to‘liq ochmasligi mumkin. Shu bois keyingi korpus bosqichida bibliografik yozuvni avtoreferat annotatsiyasi, maqsad, vazifalar, obyekt, predmet, metodlar va ilmiy yangilik haqidagi axborot bilan boyitish zarur deb hisoblandi.

**Natijalar va tahlil.** Bibliografik majmuaning 1 200 birligi, ya’ni 54,1 foizi o‘zbek tili ixtisosligiga to‘g‘ri keladi. Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik hamda tarjimashunoslikka oid 749 ish umumiy majmuaning 33,8 foizini tashkil etadi. Til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi yo‘nalishidagi 184 tadqiqot 8,3 foizga teng. Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili bo‘yicha 50 ish 2,3 foizni, Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti bo‘yicha 35 ish esa 1,6 foizni tashkil qiladi. Foizlar yaxlitlangani sababli umumiy natijada kichik tafovut yuzaga kelishi mumkin. Bu taqsimotda o‘zbek tili ixtisosligining yetakchi o‘rni tabiiydir: milliy tilning fonetik, leksik, grammatik, dialektal, tarixiy va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining asosiy ilmiy vazifasini tashkil qilgan. Biroq qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid ishlarning uchdan bir qismdan ortiq ulushga ega bo‘lishi o‘zbek tilshunosligi boshqa tillar va madaniyatlar bilan qiyoslash orqali ham faol rivojlanganini ko‘rsatadi. Til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi guruhining miqdoriy ulushi nisbatan kichik ko‘rinsa-da, aynan shu yo‘nalish so‘nggi yillardagi metodologik yangilanishlarni yaqqol aks ettiradi.

Ixtisosliklar o‘rtasidagi miqdoriy nisbatni ularning ilmiy ahamiyatini baholovchi qat’iy mezon sifatida qabul qilib bo‘lmaydi. Ixtisoslik shifrlari va nomlari turli davrlarda o‘zgargan, ayrim nazariy yoki kompyuter-lingvistik tadqiqotlar o‘zbek tili ixtisosligida, o‘zbek tili materialiga asoslangan ayrim ishlar esa umumiy yoki qiyosiy tilshunoslik ixtisosligida himoya qilingan. Demak, keyingi statistik tahlilda “rasmiy ixtisoslik” va “tadqiqotning haqiqiy tematik yo‘nalishi” alohida maydonlar sifatida belgilanishi kerak.

Bibliografiyada o‘zbek tili ixtisosligiga oid eng dastlabki tadqiqotlar 1940-yildan boshlanadi. Ayyub G‘ulomning o‘zbek tilidagi aniqlovchilarga bag‘ishlangan dissertatsiyasi hamda V.V. Reshetovning Marg‘ilon shevasi fonetikasi va morfologik xususiyatlariga oid ishi dastlabki davrning ilmiy yo‘nalishini ko‘rsatadi. Keyingi yillarda so‘z turkumlarining yasalishi, sifatdoshli aniqlovchi, chiqish kelishigi, qo‘shma fe’l, ravishdosh, ergash gap kabi masalalarning tadqiq qilinishi milliy tilning grammatik tizimini ilmiy tavsiflash birlamchi vazifa bo‘lganini tasdiqlaydi.

Mazkur bosqichni “fundamental tavsif” davri deb belgilash mumkin. Unda til birliklarini aniqlash, ularning shakliy va mazmuniy belgilarini tavsiflash, grammatik kategoriyalarni tizimlashtirish, sheva materiallarini qayd etish hamda adabiy til me’yorlarini belgilash ustuvor bo‘lgan. Bu tadqiqotlar keyingi nazariy umumlashtirishlar uchun empirik zamin yaratgan. Shuning uchun dastlabki dissertatsiyalarni faqat an’anaviy yoki tasviriy yondashuv mahsuli sifatida baholash yetarli emas; ular o‘zbek tilining ilmiy grammatikasi, dialektologik atlasi va tarixiy leksikologiyasi shakllanishiga xizmat qilgan manbalar sifatida qimmatlidir.

Bu davr materiallarini tahlil qilishda tarixiy kontekstni hisobga olish zarur. Dissertatsiya mavzularining nomlanishi, ilmiy daraja tizimi, muassasalar va ixtisosliklar bugungi shakldan farq qiladi. Ayrim ishlar kirill, ayrimlari rus tilida rasmiylashtirilgan; muallif ismlari va geografik nomlarda bir necha yozuv varianti uchraydi. Ularni zamonaviy shaklga mexanik almashtirish tarixiy ma’lumotni yo‘qotishi mumkin. Shu bois kelajakdagi elektron bazada yozuvning asl ko‘rinishi va normallashtirilgan shakli parallel saqlanishi maqsadga muvofiq.

Keyingi bosqichda o‘zbek tilshunosligining tadqiqot doirasi grammatik hodisalar tavsifidan tashqariga chiqib, leksikologiya, frazeologiya, terminologiya, onomastika, dialektologiya, tarixiy tilshunoslik,

uslubshunoslik va badiiy asar tili kabi yo‘nalishlarda kengaydi. Bunda tilning alohida sathlari bo‘yicha to‘plangan bilimlar ichki ixtisoslashuvni yuzaga keltirdi. Bir ilmiy muammo atrofida rahbar, shogird, muassasa va hududiy materialning muntazam birlashishi ilmiy maktablarning tarkib topishiga imkon berdi.

Bibliografik yozuvlarda ilmiy rahbar yoki maslahatchining ko‘rsatilishi mazkur jarayonni maxsus o‘rganish imkonini beradi. Ilmiy maktab faqat bir olim rahbarligida bajarilgan ishlar soni bilan emas, muammolarning izchil davom ettirilishi, nazariy yondashuvning rivojlantirilishi va yangi tadqiqotchilar avlodining shakllanishi bilan belgilanadi. Shu sababli rahbar–shogird aloqalarini tarmoq tahlili asosida tasvirlash o‘zbek tilshunosligi tarixiga yangi ma’lumotlar kiritishi mumkin. Bunda birgalikdagi ishtirok yoki rahbarlik aloqasini avtomatik tarzda mazmuniy yaqinlik bilan tenglashtirmaslik lozim; tarmoq natijalari dissertatsiya mazmuni bilan tekshirilishi zarur.

Institutsional ma’lumotlar ham fan tarixining muhim ko‘rsatkichidir. Dissertatsiya bajarilgan tashkilot bilan himoya o‘tkazilgan kengash bir xil bo‘lmasligi mumkin. Bu holat muayyan davrda qaysi muassasa ilmiy mavzu ishlab chiqqani, qaysi markaz esa ekspertiza va ilmiy daraja berish vakolatiga ega bo‘lganini farqlashni talab etadi. Elektron korpusda “tadqiqot bajarilgan tashkilot”, “yetakchi tashkilot” va “himoya kengashi joylashgan tashkilot” kabi maydonlarning ajratilishi institutsional tahlilning aniqligini oshiradi.

XX asrning oxiri va XXI asr boshidan tilni faqat ichki tizim sifatida emas, inson, tafakkur, madaniyat, jamiyat va kommunikativ faoliyat bilan bog‘liq holda o‘rganishga yo‘naltirilgan mavzular ko‘paydi. Dissertatsiya nomlarida pragmatika, diskurs, konsept, lisoniy manzara, gender, lingvomadaniyat, kognitiv model, kommunikativ strategiya kabi terminlarning faollashuvi o‘zbek tilshunosligidagi paradigmatik yangilanishni ko‘rsatadi. Ushbu siljish avvalgi struktur va funksional tadqiqotlarni inkor etmaydi; aksincha, til birliklari haqidagi bilimni ularning nutqiy vazifasi va ijtimoiy-madaniy sharoiti bilan to‘ldiradi.

Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik hamda tarjimashunoslikka oid 749 tadqiqotning mavjudligi tillararo tadqiqotlar alohida katta maydonni tashkil etganini ko‘rsatadi. Bunday ishlarda o‘zbek tili ingliz, rus, nemis, fransuz, turkiy va boshqa tillar bilan fonetik, leksik-semantik, grammatik, pragmatik yoki lingvomadaniy jihatdan qiyoslangan. Shuningdek, tarjima birliklari, ekvivalentlik, milliy-madaniy xususiyatlarni qayta ifodalash va tarjima strategiyalariga qiziqish kuchaygan.

Paradigmatik yangilanishning ijobiy tomoni tadqiqot obyekti va metodlarining kengayishidir. Shu bilan birga, bibliografik tahlil mavzu nomlarida yaqin tushunchalar va takroriy formulalarning ko‘payishi ehtimolini ham ko‘rsatadi. “Konseptning lingvomadaniy xususiyatlari”, “turli tizimli tillarda”, “kognitiv-pragmatik tadqiq” kabi qoliplar ko‘plab mavzularda uchrashi mumkin. Buni ilmiy takror deb baholashdan oldin obyekt, material, metod va olinadigan natija qiyoslanishi kerak. Shunday bo‘lsa-da, avtomatik o‘xshashlik tahlili yangi mavzuni tanlashda ogohlantiruvchi vosita vazifasini bajaradi.

Bibliografik material o‘zbek tilshunosligida miqdoriy hamda avtomatlashtirilgan tahlilga qiziqish kompyuter lingvistikasi ixtisosligi rasmiylashishidan oldin ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Jumladan, S.U. Musaxodjayevning 1986-yilda o‘zbek ilmiy-texnik matni va elektrotexnika-elektronika terminologiyasini lingvostatistik tahlil qilishga bag‘ishlangan dissertatsiyasi mazkur yo‘nalishning dastlabki manbalaridan biridir [8: 198]. Bu fakt fan rivojini faqat ixtisoslik nomi orqali davrlashtirish yetarli emasligini tasdiqlaydi.

2018-yildan keyingi materiallarda “korpus” tushunchasi bilan bevosita bog‘liq mavzular muntazam tus olgan. Mualliflik korpusi, milliy korpusning sinonimlar va idiomalar bazasi, leksik-semantik teglash, ta’limiy korpus, parsing dasturi, shevalar korpusi, dialektal korpus, parallel korpus, uslubiy teglar, frazemalarni teglash, ilmiy-texnik matnlar bazasi va gaplarning iyerarxik tahlili korpusi kabi yo‘nalishlar shakllangan.

Korpus faqat katta hajmdagi elektron matnlar to‘plami emas; u oldindan belgilangan mezonlar asosida shakllantirilgan, mashina o‘qiydigan, metama’lumot va lingvistik belgilash bilan ta’minlangan tizimdir [6: 294; 11: 1 – 16]. Reprezentativlik esa korpusning hajmigagina emas, til xilma-xilligini ifodalovchi namuna tarkibi va tanlov mezonlariga bog‘liq [3: 243 – 257]. Mazkur talablar bibliografik ma’lumotlarga ham tegishli: yozuvlar elektron shaklga ko‘chirilgani bilan avtomatik ravishda korpus hosil bo‘lmaydi. Ular yagona struktura asosida ajratilishi, normallashtirilishi, teglanishi va qidiruv uchun indekslanishi kerak.

Bibliografiya asosidagi korpus o‘zbek tili milliy korpusining o‘rnini bosmaydi. Milliy korpus tilning turli funksional uslub, janr, davr va hududlardagi real qo‘llanish namunalarini qamrab olsa, dissertatsiyalar bibliografik korpusi fan haqidagi metama’lumotlarni birlashtiradi. Uning obyekti til birliklarining bevosita qo‘llanishi emas, lingvistik bilimning ishlab chiqilishi va rasmiylashtirilishidir. Agar unga dissertatsiya sarlavhalari, annotatsiyalar, kalit so‘zlar, mundarija va avtoreferat matnlari qo‘shilsa, u o‘zbek ilmiy-lingvistik diskursining ixtisoslashtirilgan matn korpusi sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi bibliografiya katta hajmdagi tizimlashtirilgan manba bo‘lsa-da, undagi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish uchun yozuvlarni alohida ma’lumot maydonlariga ajratish talab etiladi. Muallif, mavzu, yil,

daraja, ixtisoslik, rahbar, tashkilot, shahar, sahifa, UDK, manba turi va saqlanish manzili mustaqil atribut sifatida belgilanishi kerak. Bunga tadqiqot tili, obyekti, predmeti, til sathi, metod, material turi, hudud va tarixiy davr kabi analitik teglar qo‘shilsa, oddiy bibliografik qidiruvdan mazmuniy qidiruvga o‘tish mumkin bo‘ladi.

Metama’lumotlarning o‘zaro ishlashini ta’minlashda xalqaro tavsif tamoyillaridan foydalanish muhim. Dublin Core modeli resurs nomi, yaratuvchi, mavzu, tavsif, nashriyot, sana, tur, format, identifikator, til va aloqador manba kabi asosiy elementlarni yagona tizimda ifodalash imkonini beradi [5]. Biroq dissertatsion korpus uchun ilmiy daraja, ixtisoslik shifri, rahbar, himoya kengashi va avtoreferat mavjudligi kabi mahalliy maydonlar ham zarur. Shuning uchun xalqaro yadro elementlari milliy attestatsiya tizimiga xos atributlar bilan kengaytirilishi lozim.

Ma’lumotlarni tozalash alohida metodologik bosqichdir. Bir dissertatsiyaning dissertatsiya va avtoreferat shakllari ikki mustaqil nashr sifatida uchrashi mumkin; ayrim yozuvlar turli fondlardan olingani sababli takrorlanishi ehtimoli bor. Bunday holatda “bir tadqiqot – bir asosiy identifikator” tamoyili qo‘llanib, uning dissertatsiya, avtoreferat va elektron nusxalari o‘zaro bog‘langan manbalar sifatida ko‘rsatilishi kerak. Dublikatni aniqlash muallif familiyasi bilangina emas, mavzu, yil, ilmiy daraja, ixtisoslik va tashkilot belgilarining birgalikdagi mosligiga asoslanishi lozim.

Grafik xilma-xillik ham qidiruv sifatiga ta’sir qiladi. Muallifning ismi kirill va lotin yozuvida, ruscha bibliografik shaklda yoki qisqartma bilan berilgan bo‘lishi mumkin. Asl shakl manba aniqligini saqlash uchun qoldiriladi, qidiruv uchun esa normallashtirilgan shakl va variant nomlar alohida maydonlarda birlashtiriladi. Xuddi shu tamoyil muassasa, shahar va ixtisoslik nomlariga tatbiq etiladi. Bu yondashuv tarixiy nomlarni yo‘qotmagan holda bir subyektga tegishli barcha yozuvlarni topish imkonini beradi.

Bibliografik korpus foydalanuvchiga bir nechta maydon bo‘yicha kombinatsiyalangan so‘rov yuborish imkonini berishi kerak. Masalan, 2018–2025-yillarda korpus lingvistikasi bo‘yicha bajarilgan PhD dissertatsiyalari; muayyan ilmiy rahbar boshchiligidagi ishlar; ma’lum hudud shevalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar; o‘zbek va ingliz tillarini qiyoslagan ishlar; sintaksisga oid, ammo statistik metod qo‘llangan tadqiqotlarni alohida topish mumkin bo‘ladi. Shu tariqa korpus bibliografik ko‘rsatkichdan ilmiy rejalashtirish vositasiga aylanadi.

**Aniqlangan muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar.** Bibliografik majmua o‘zbek tilshunosligining katta ilmiy merosini qamrab olishi bilan birga, fan tarixini yanada chuqur o‘rganish uchun bir qator vazifalarni ko‘rsatadi. Birinchisi, bibliografik qamrovning to‘liqligini muntazam tekshirishdir. Arxiv cheklovlari, saqlanmagan hujjatlar yoki elektron kataloglarning to‘liq emasligi sababli ayrim ishlar ro‘yxatdan tashqarida qolgan bo‘lishi mumkin. Korpus yopiq nashr emas, yangi topilmalar bilan to‘ldiriladigan versiyalanuvchi resurs sifatida yaratilishi kerak. Ikkinchi vazifa mavzuviy tasnifning barqaror tizimini ishlab chiqishdir. Fonetika, leksikologiya, morfologiya va sintaksis singari an’anaviy bo‘limlar bilan pragmatika, diskurs tahlili, kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, korpus lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash yo‘nalishlari yagona iyerarxiyada joylashtirilishi zarur. Bitta tadqiqot bir necha yo‘nalishga mansub bo‘lishi mumkinligi sababli ko‘p qiymatli teglash qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi vazifa dissertatsiya mavzularidagi takror va yaqinlikni aniqlashdir. Leksik moslik mavzularning mazmunan aynanligini bildirmaydi, lekin bir xil obyekt, material va metod kombinatsiyasining takrorlanishi ilmiy yangilikni asoslashni qiyinlashtiradi. Korpusda so‘z shakllarini lemmalash, tayanch terminlarni ajratish va semantik yaqinlikni hisoblash vositalari yaratilsa, yangi dissertatsiya mavzusini tasdiqlashdan oldin mavjud ishlar bilan avtomatlashtirilgan qiyoslash imkoniyati paydo bo‘ladi.

To‘rtinchi vazifa dissertatsion tadqiqot natijalarining keyingi ilmiy aylanishini o‘rganishdir. Bibliografik yozuvlar maqolalar, monografiyalar, patentlar, dasturiy mahsulotlar va lug‘atlar bilan bog‘lansa, dissertatsiyaning ilmiy ta’siri faqat himoya fakti bilan emas, undan kelib chiqqan natijalar orqali baholanadi. Bunday aloqa o‘zbek tilshunosligida nazariy g‘oyaning amaliy mahsulotga aylanish yo‘lini kuzatish imkonini beradi.

**Muhokama.** Olingan natijalar o‘zbek tilshunosligining rivojlanishi bir yo‘nalishning boshqasini to‘liq almashtirishi shaklida emas, mavjud ilmiy qatlamlarning kengayishi va yangi metodlar bilan boyishi orqali kechganini ko‘rsatadi. Grammatik va dialektologik tadqiqotlar keyingi davrlarda ham davom etgan, biroq ularning yonida kommunikativ, kognitiv, madaniy va texnologik yondashuvlar shakllangan. Shuning uchun davrlashtirishda qat’iy chegaralardan ko‘ra, ma’lum bosqichda qaysi tendensiya yetakchilik qilganini ko‘rsatish ilmiy jihatdan to‘g‘riroqdir.

Dissertatsiyalar sonining ortishi fan taraqqiyotining muhim, ammo yetarli bo‘lmagan ko‘rsatkichidir. Miqdoriy o‘sish yangi obyekt va metodlarning paydo bo‘lishi bilan birga kechgandagina mazmuniy

yangilanishni bildiradi. Aks holda mavzu formulalarining almashishi mavjud natijalarni takrorlashi mumkin. Shu sababli bibliometrik ko‘rsatkichlar dissertatsiya mazmunini ekspert tahlilidan o‘tkazish bilan to‘ldirilishi lozim. Bibliografik korpus esa ekspertga barcha ishlarni avtomatik baholab beradigan tizim emas, balki tekshirish uchun zarur ma’lumotni tez va izchil taqdim qiladigan vositadir.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud. Bibliografiyaga kiritilgan yozuvlarning rekvizitlari bir xil darajada to‘liq emas; tarixiy manbalarda ilmiy rahbar, aniq himoya sanasi yoki elektron manzil ko‘rsatilmagan bo‘lishi mumkin. Sarlavha asosidagi tematik tahlil dissertatsiya mazmunining barcha jihatlarini qamrab olmaydi. Shuningdek, ixtisoslik shifrlari o‘zgarishi uzoq davrni bevosita statistik qiyoslashni murakkablashtiradi. Mazkur cheklovlar kelajakdagi korpusda ma’lumotning ishonchlilik darajasi, manbasi va tekshirilganlik holatini alohida belgilash zarurligini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, 85 yillik bibliografik qatlam o‘zbek tilshunosligi tarixini empirik ma’lumotlar asosida qayta ko‘rish imkonini beradi. Undan fan tarixiga oid tadqiqot, yangi dissertatsiya mavzusini ekspertizadan o‘tkazish, ilmiy rahbar va maktablar faoliyatini o‘rganish, ta’lim dasturlarini yangilash hamda raqamli gumanitar loyihalarni rivojlantirishda foydalanish mumkin. Bibliografik majmuaning ilmiy qiymati aynan uning turli vazifalarda qayta ishlatilishi va yangi ma’lumotlar bilan boyitilishida namoyon bo‘ladi.

**Xulosa.** Bibliografiyani mashina o‘qiydigan va ko‘p sathli teglar bilan ta’minlangan korpusga aylantirish dissertatsiyalarni izlashni yengillashtirish bilangina cheklanmaydi. Bunday tizim ilmiy mavzular takrori va bo‘shliqlarini aniqlash, ilmiy maktablar rivojini kuzatish, institutsional aloqalarni tahlil qilish hamda yangi tadqiqotlarni dalillarga asoslangan holda rejalashtirish imkonini beradi. Demak, yaratilgan bibliografiya yakunlangan ro‘yxat emas, o‘zbek tilshunosligi ilmiy merosining raqamli bibliografik korpusini yaratish uchun asosiy empirik poydevordir.

***ADABIYOTLAR:***

*1. Aria M., Cuccurullo C. Bibliometrix: An R-tool for comprehensive science mapping analysis // Journal of Informetrics. – 2017. – Vol. 11, No. 4. – P. 959–975. DOI: 10.1016/j.joi.2017.08.007.*

*2. Ayyub G‘. O‘zbek tilida aniqlovchilar: Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1940. – 147 b.*

*3. Biber D. Representativeness in corpus design // Literary and Linguistic Computing. – 1993. – Vol. 8, No. 4. – P. 243–257. DOI: 10.1093/llc/8.4.243.*

*4. Donthu N., Kumar S., Mukherjee D., Pandey N., Lim W.M. How to conduct a bibliometric analysis: An overview and guidelines // Journal of Business Research. – 2021. – Vol. 133. – P. 285–296. DOI: 10.1016/j.jbusres.2021.04.070.*

*5. ISO 15836-1:2017. Information and documentation — The Dublin Core metadata element set — Part 1: Core elements. – Geneva: International Organization for Standardization, 2017.*

*6. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 294 p.*

*7. Mengliyev B., Gulyamova Sh. XX–XXI asr o‘zbek tilshunosligiga oid dissertatsiya va avtoreferatlar bibliografiyasi (1940–2025-yillar). – Toshkent, 2026. – Nashrga tayyorlangan qo‘lyozma.*

*8. Мусаходжаев С.У. Лингвостатистический анализ узбекского научно-технического текста и терминологии подъязыка электротехники и электроники: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 198 с.*

*9. Pritchard A. Statistical bibliography or bibliometrics? // Journal of Documentation. – 1969. – Vol. 25, No. 4. – P. 348–349.*

*11. Sinclair J. Corpus and text — Basic principles // Developing Linguistic Corpora: A Guide to Good Practice / ed. M. Wynne. – Oxford: Oxbow Books, 2005. – P. 1–16.*